Xalqaro ilmiy adabiyotlarda suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, Water Resources Management jurnalida e'lon qilingan tadqiqotlarda GIS va masofaviy zondlash texnologiyalari yordamida suv balansini aniqlashning yuqori aniqligi isbotlangan⁷.

Journal of Hydroinformatics jurnalida chop etilgan ilmiy ishlar IoT sensorlar orqali suv iste'molini real vaqt rejimida monitoring qilish suv yo'qotishlarini 20–30 foizga qisqartirish imkonini berishini ko'rsatadi. Shuningdek, Applied Water Science jurnalida sun'iy intellekt asosida suv iste'molini prognozlash modellari ishlab chiqilgan⁸.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida mobil ilovalarning suv resurslarini boshqarishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar bilan integratsiyasi yetarlicha yoritishga harakat qilingan. Shu sababli ushbu maqolada aynan mobil ilovalar asosidagi raqamli platformaning ilmiy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilinadi.

Suv resurslarini boshqarish masalasi so'nggi o'n yilliklarda xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati suv boshqaruvi tizimlarini modernizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi⁹. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalar asosida suv resurslarini boshqarish masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar suv resurslarini boshqarishda asosiy innovatsion omil sifatida qaralmoqda. GIS va masofaviy zondlash texnologiyalari suv havzalarini monitoring qilish, suv balansini aniqlash va hududiy tahlilni amalga oshirishda keng qo'llanilmoqda¹⁰.

2 Carlos Parra-López, Saker Ben Abdallah, Guillermo Garcia-Garcia, Abdo Hassoun, Hana Trollman, Sandeep Jagtap, Sumit Gupta, Abderrahmane Aït-Kaddour, Sureerat Makmuang, Carmen Carmona-Torres, Digital technologies for water use and management in agriculture: Recent applications and future outlook, *Agricultural Water Management*, Volume 309, 2025, 109347, ISSN 0378-3774, <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2025.109347>.

3 Carlos Parra-López, Saker Ben Abdallah, Guillermo Garcia-Garcia, Abdo Hassoun, Hana Trollman, Sandeep Jagtap, Sumit Gupta, Abderrahmane Aït-Kaddour, Sureerat Makmuang, Carmen Carmona-Torres, Digital technologies for water use and management in agriculture: Recent applications and future outlook, *Agricultural Water Management*, Volume 309, 2025, 109347, ISSN 0378-3774, <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2025.109347>.

4 Vijai, P.; Sivakumar, P.B. Design of IoT Systems and Analytics in the context of Smart City initiatives in India. *Procedia Comput. Sci.* 2016, 92, 583–588. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

5 Hassan Aboelkhair, Mostafa Morsy, Gamal El Afandi, Assessment of agroclimatology NASA POWER reanalysis datasets for temperature types and relative humidity at 2 m against ground observations over Egypt, *Advances in Space Research*, Volume 64, Issue 1, 2019, Pages 129-142, ISSN 0273-1177, <https://doi.org/10.1016/j.asr.2019.03.032>.

6 The LCA4CSA framework: using life cycle assessment to strengthen environmental sustainability analysis of climate smart agriculture options at farm and crop system levels *Agric. Syst.*, 171 (2019), pp. 155-170, [10.1016/j.agsy.2019.02.001](https://doi.org/10.1016/j.agsy.2019.02.001)

7 Rabie, A. B., Elhag, M., & Subyani, A. (2025). Remote Sensing, GIS, and Machine Learning in Water Resources Management for Arid Agricultural Regions: A Review. *Water*, 17(21), 3125. <https://doi.org/10.3390/w17213125>

8 Dong, J., Li, F., Kou, J. et al. Prediction of water consumption and affecting factor analysis using Inception-V4 network and enhanced single candidate optimization: a case study. *Appl Water Sci* (2025). <https://doi.org/10.1007/s13201-025-02697-7>

9 Shams Forruque Ahmed, Md. Sakib Bin Alam, Mahfara Hoque, Aiman Lameesa, Shaila Afrin, Tasfia Farah, Maliha Kabir, GM Shafiullah, S.M. Mueen, Industrial Internet of Things enabled technologies, challenges, and future directions, *Computers and Electrical Engineering*, Volume 110, 2023, 108847, ISSN 0045-7906, <https://doi.org/10.1016/j.compeleceng.2023.108847>.

10 A.P. Barros, 5.04 - Orographic Precipitation, Freshwater Resources, and Climate Vulnerabilities in Mountainous Regions, Editor(s): Roger A. Pielke, *Climate Vulnerability*, Academic Press, 2013, Pages 57-78, ISBN 9780123847041, <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-384703-4.00504-9>.

Masalan, Water Resources Management jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda GIS texnologiyalaridan foydalanish suv resurslarini rejalashtirishda aniqlikni 15–25 foizga oshirishi ko'rsatilgan¹¹. Shuningdek, masofaviy zondlash orqali sug'oriladigan maydonlar holatini baholash suv taqsimotidagi nomutanosibliklarni aniqlash imkonini beradi.

IoT texnologiyalari suv oqimi, bosimi va namligini real vaqt rejimida o'lchash orqali suv yo'qotishlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Journal of Hydroinformatics jurnalida keltirilgan natijalarga ko'ra, IoT sensorlar asosida monitoring tizimlarini joriy etish suv yo'qotishlarini o'rtacha 20–30 foizga qisqartirgan¹².

Sun'iy intellekt va mashinali o'rganish algoritmlari suv iste'molini prognozlash va optimal taqsimlashda keng qo'llanilmoqda. Applied Water Science jurnalida e'lon qilingan tadqiqotlar AI asosidagi modellar an'anaviy statistik usullarga nisbatan yuqori aniqlikka ega ekanini ko'rsatadi¹³.

Mobil texnologiyalar suv boshqaruvi tizimlarida nisbatan yangi, ammo tez rivojlanayotgan yo'nalish hisoblanadi. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga suv iste'moli haqidagi ma'lumotlarni tezkor ko'rish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi¹⁴.

Raqamli platformalar suv xo'jaligi tashkilotlari faoliyatida shaffoflikni oshirish, hisobdorlikni kuchaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mobil ilovalar ushbu platformalarning muhim elementi sifatida suv iste'molini boshqarish jarayonini bevosita foydalanuvchi darajasiga olib chiqadi¹⁵.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki. Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar keng o'rganilgan. IoT, GIS va AI asosidagi modellar samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan¹⁶. Mobil ilovalar suvni tejash vositasi sifatida tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tizimli va kompleks yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslama tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, mantiqiy umumlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida suv resurslarini boshqarish tizimi, predmet sifatida esa raqamli texnologiyalar va mobil ilovalar asosida suv iste'molini boshqarish mexanizmlari tanlandi.

Mazkur tadqiqot suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va mobil ilovalar asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi suv resurslarini boshqarishning texnologik, iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- suv resurslarini boshqarish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- raqamli texnologiyalar va mobil ilovalarning suv iste'moliga ta'sirini o'rganish;
- mobil ilova asosida suv iste'molini boshqarishning iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish;
- model asosida samaradorlikni baholash;
- olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Mazkur ketma-ketlik tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur yondashuv suv resurslarini boshqarishda inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishga va boshqaruv jarayonining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Mobil ilova asosida suv iste'molini boshqarish samaradorligini baholash uchun quyidagi iqtisodiy-matematik modeldan foydalanildi.

$$E = ((W_0 - W_1) \cdot P_w + (C_0 - C_1)) / I$$

11 Rizvi, SA, Ahmad, A., Latif, M. va boshqalar. Sug'orish tizimining ishlashini baholash uchun GIS muhitida masofaviy zondlash ma'lumotlarining ahamiyati. Water Resource Manage 35, 4909–4926 (2021). <https://doi.org/10.1007/s11269-021-02979-0>

12 Experiments of an IoT-based wireless sensor network for flood monitoring in Colima, Mexico O. Mendoza-Cano, R. Aquino-Santos, J. López-de la Cruz, R. M. Edwards, A. Khouakhi, I. Pattison, V. Rangel-Licea, E. Castellanos-Berjan, M. A. Martínez-Preciado, P. Rincón-Avalos, P. Lepper, A. Gutiérrez-Gómez, J. M. Uribe-Ramos, J. Ibarreche and I. Perez Journal of Hydroinformatics (2021) 23 (3): 385–401. <https://doi.org/10.2166/hydro.2021.126>

13 García-Soto, C.G., Torres, J.F., Zamora-Izquierdo, M.A. et al. Water consumption time series forecasting in urban centers using deep neural networks. Appl Water Sci 14, 21 (2024). <https://doi.org/10.1007/s13201-023-02072-4>

14 Volodymyr Skryabin, Huanjie Jia, Jiaqi Zhao, Dan Hong, Bermet Ryskulova, and Shuhong Xin. A mobile application for building smart water consumption habits. BIO Web of Conferences 107, 04002 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/202410704002> YRC-2024

15 Dai, Y.; Huang, Z.; Khan, N.; Labbo, M.S. Smart Water Management: Governance Innovation, Technological Integration, and Policy Pathways Toward Economic and Ecological Sustainability. Water 2025, 17, 1932. <https://doi.org/10.3390/w17131932>

16 Soares Ascensão, É.; Melo Marinangelo, F.; Meschini Almeida, C.F.; Kagan, N.; Dias, E.M. Applications of Smart Water Management Systems: A Literature Review. Water 2023, 15, 3492. <https://doi.org/10.3390/w15193492>



Bu yerda:

- E — mobil ilova asosida suv iste'molini boshqarishning umumiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi;
- W_0 — mobil ilova joriy etilishidan oldingi suv iste'moli (m^3);
- W_1 — mobil ilova joriy etilgandan keyingi suv iste'moli (m^3);
- P_w — $1 m^3$ suvning iqtisodiy qiymati (so'm/ m^3);
- C_0 — an'anaviy boshqaruv sharoitidagi umumiy xarajatlar (so'm);
- C_1 — mobil ilova asosida boshqaruvdagi umumiy xarajatlar (so'm);
- I — mobil ilovani ishlab chiqish va joriy etish xarajatlari (so'm).

Ushbu model suv iste'molini kamaytirish darajasi va raqamli boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda ochiq statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan empirik natijalardan foydalanildi. Shu bilan birga, tadqiqotda ayrim cheklovlar mavjud bo'lib, ular real hududiy tajriba ma'lumotlarining yetarli emasligi va ayrim ko'rsatkichlarning baholash xarakteriga ega ekanligi bilan bog'liq. Mazkur cheklovlar keyingi tadqiqotlarda real amaliy ma'lumotlar asosida modelni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mobil ilovalar suv resurslarini boshqarishda foydalanuvchi va boshqaruv tizimi o'rtasidagi asosiy interfeys hisoblanadi. Ilova orqali suv iste'moli bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi, sensorlardan olingan axborotlar ko'rsatiladi va tahlil natijalari foydalanuvchiga yetkaziladi. Mobil ilovaning asosiy funksiyalari: suv iste'molini real vaqt rejimida kuzatish, sug'orish jadvalini avtomatik shakllantirish, suv tejash bo'yicha tavsiyalar berish, statistik va grafik hisobotlar yaratish.

Mobil ilova asosidagi samaradorlik quyidagi formula orqali baholandi.

$$E_m = \alpha \cdot (W_0 / W_1) + \beta \cdot (C_0 / C_1) - I$$

Bu yerda:

- E_m — mobil ilova asosida suv iste'molini boshqarishning integral samaradorlik indeksi;
- W_0 — mobil ilova joriy etilishidan oldingi suv iste'moli (m^3);
- W_1 — mobil ilova joriy etilgandan keyingi suv iste'moli (m^3);
- C_0 — an'anaviy boshqaruv sharoitidagi umumiy xarajatlar (so'm);
- C_1 — mobil ilova asosidagi boshqaruvdagi umumiy xarajatlar (so'm);
- α — suv iste'molini qisqartirish ahamiyatini ifodalovchi vazn koeffitsienti ($\alpha > 0$);
- β — xarajatlarni kamaytirish ahamiyatini ifodalovchi vazn koeffitsienti ($\beta > 0$);
- I — mobil ilovani joriy etish bilan bog'liq normallashtirilgan investitsiya xarajatlari.

Mazkur model suv iste'molining nisbiy kamayishi va boshqaruv xarajatlarning nisbiy qisqarishini vaznli koeffitsiyentlar orqali baholaydi. Modelda suv narxini alohida kiritmasdan, boshqaruv samaradorligi indeks ko'rinishida aniqlanadi. E_m qiymatining ortishi mobil ilova asosida suv iste'molini boshqarish samaradorligi oshganligini bildiradi.

Mazkur model suv iste'molini qisqartirish va raqamli texnologiyalarning ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi (1-rasm; 1-jadval).



1-rasm. Raqamli boshqaruv mexanizmining konseptual chizmasi¹⁷

1-jadval. Empirik baholash natijalari¹⁸

Ko'rsatkich	An'anaviy tizim	Mobil ilova asosida
Suv yo'qotilishi (%)	25–30	12–15
Qaror qabul qilish tezligi	Past	Yuqori
Iqtisodiy samaradorlik	O'rtacha	Yuqori

Raqamli texnologiyalar va mobil ilovalar ta'sirining umumiy ko'rinishi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va mobil ilovalardan foydalanish suv yo'qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi, sug'orish samaradorligini oshiradi, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, foydalanuvchi va boshqaruv tizimi o'rtasida shaffoflikni ta'minlaydi.

Empirik baholash natijalariga ko'ra, mobil ilovalar joriy etilgan hududlarda suv yo'qotilishi o'rtacha 12–15 %gacha kamaygan. An'anaviy boshqaruvda esa bu ko'rsatkich 25–30 % atrofida bo'lgan (2-jadval).

2-jadval. Empirik baholash natijalari¹⁹

Ko'rsatkichlar	An'anaviy boshqaruv	Mobil ilova asosida boshqaruv
Suv yo'qotilishi (%)	25–30	12–15
Sug'orish samaradorligi	Past	Yuqori
Ma'lumot aniqligi	O'rtacha	Yuqori
Qaror qabul qilish vaqti	Sekin	Tezkor
Iqtisodiy samaradorlik	Past	Yuqori

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mobil ilova asosida boshqaruv suv yo'qotishlarini deyarli ikki barobar kamaytiradi, qaror qabul qilish tezligini oshiradi va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilaydi.

Mobil ilovalar suv resurslarini boshqarishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. IoT va AI integratsiyasi boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi va inson xatolarini kamaytiradi. Iqtisodiy jihatdan mobil ilova yordamida suv tejalishi va xarajatlarni kamaytirish mumkin. Mobil ilovalar foydalanuvchi darajasida amaliy yechim beradi, bu esa tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mobil ilovalarni joriy etishda texnik infratuzilma, foydalanuvchi savodxonligi va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar suv resurslarini boshqarishda samarali vosita bo'lib, texnik va iqtisodiy jihatdan yuqori natija beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish kadrlar salohiyati va tashkiliy tuzilmalarning moslashuvini talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, suv resurslarini boshqarishda mobil ilovalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Empirik natijalar va iqtisodiy-matematik model ko'rsatkichlari mobil ilovalar joriy etilganda suv yo'qotilishining o'rtacha 12–15 %ga kamayishini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkich an'anaviy boshqaruv tizimi bilan solishtirganda ikki barobar samarali ekanini bildiradi.

Mobil ilova asosida qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi, bu esa real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqaruvni avtomatlashtirish imkonini yaratadi.

Grafik va jadval natijalari mobil ilova foydalanuvchilarga suv iste'moli va sug'orish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi, bu esa suv resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi shartlar muhim: texnik infratuzilma – IoT sensorlar, bulutli serverlar va yuqori tezlikdagi internet; foydalanuvchi salohiyati – fermerlar va suv boshqaruv tashkilotlari xodimlarining mobil ilovadan samarali foydalanishi; normativ-huquqiy bazaning rivojlanishi – raqamli boshqaruv tizimining qonuniy asoslari va ma'lumotlarni himoya qilish me'yorlari.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar faqat texnik vosita sifatida emas, balki suv boshqaruvi tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining muhim qismi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mobil ilovalarni suv boshqaruvi tizimiga integratsiyalash – IoT sensorlar va AI algoritmlari bilan birlashtirib, real vaqt rejimida monitoringni yo'lga qo'yish.

2. Suv iste'molini optimallashtirish bo'yicha foydalanuvchi yo'riqnomalari – mobil ilova foydalanuvchilarga suv tejash va sug'orish bo'yicha tavsiyalar berishi.

18 Muallif ishlanmasi

19 Muallif ishlanmasi



3. Iqtisodiy samaradorlikni baholash tizimi – mobil ilova yordamida suv tejallishi va xarajatlarni kamaytirish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish.

4. Kadrlar malakasini oshirish – suv xo'jaligi xodimlari va fermerlarni raqamli boshqaruv tizimlariga o'rgatish.

5. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash – ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli boshqaruvni tartibga soluvchi qonunlar va me'yorlarni joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va mobil ilovalardan foydalanish suv iste'molini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Quydagi tavsiyalar ishlab chiqildi: mobil ilovalarni suv xo'jaligi boshqaruv tizimlariga integratsiyalash, IoT va AI texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli suv boshqaruvi bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

Mazkur maqola davomida suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va mobil ilovalardan foydalanish samaradorlikni oshirishning samarali mexanizmi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdi: mobil ilovalar suv yo'qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi, IoT va AI texnologiyalari real vaqt rejimida monitoring va tahlil imkonini yaratadi, qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi, mobil ilovalar nafaqat texnik vosita, balki tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning muhim elementi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida suv resurslarini boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Kelajakda mobil ilovalarni yanada takomillashtirish, AI algoritmlarini optimallashtirish va hududiy tajribalarni kengaytirish tadqiqotning keyingi yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mekonnen, Mesfin & Hoekstra, Arjen. (2016). Four billion people facing severe water scarcity. *Science Advances*. 2. e1500323-e1500323. 10.1126/sciadv.1500323.
2. Carlos Parra-López, Saker Ben Abdallah, Guillermo Garcia-Garcia, Abdo Hassoun, Hana Trollman, Sandeep Jagtap, Sumit Gupta, Abderrahmane Aït-Kaddour, Sureerat Makmuang, Carmen Carmona-Torres, Digital technologies for water use and management in agriculture: Recent applications and future outlook, *Agricultural Water Management*, Volume 309, 2025, 109347, ISSN 0378-3774, <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2025.109347>.
3. Carlos Parra-López, Saker Ben Abdallah, Guillermo Garcia-Garcia, Abdo Hassoun, Hana Trollman, Sandeep Jagtap, Sumit Gupta, Abderrahmane Aït-Kaddour, Sureerat Makmuang, Carmen Carmona-Torres, Digital technologies for water use and management in agriculture: Recent applications and future outlook, *Agricultural Water Management*, Volume 309, 2025, 109347, ISSN 0378-3774, <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2025.109347>.
4. Vijai, P.; Sivakumar, P.B. Design of IoT Systems and Analytics in the context of Smart City initiatives in India. *Procedia Comput. Sci.* 2016, 92, 583–588. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
5. Gosling, S.N., Arnell, N.W. A global assessment of the impact of climate change on water scarcity. *Climatic Change* 134, 371–385 (2016). <https://doi.org/10.1007/s10584-013-0853-x>
6. Industrial internet of things enabled technologies, challenges, and future directions *Comput. Electr. Eng.*, 110 (2023), Article 108847, 10.1016/j.compeleceng.2023.108847
7. Hassan Aboelkhair, Mostafa Morsy, Gamal El Afandi, Assessment of agroclimatology NASA POWER reanalysis datasets for temperature types and relative humidity at 2 m against ground observations over Egypt, *Advances in Space Research*, Volume 64, Issue 1, 2019, Pages 129-142, ISSN 0273-1177, <https://doi.org/10.1016/j.asr.2019.03.032>.
8. The LCA4CSA framework: using life cycle assessment to strengthen environmental sustainability analysis of climate smart agriculture options at farm and crop system levels *Agric. Syst.*, 171 (2019), pp. 155-170, [10.1016/j.agsy.2019.02.001](https://doi.org/10.1016/j.agsy.2019.02.001)
9. Rabie, A. B., Elhag, M., & Subyani, A. (2025). Remote Sensing, GIS, and Machine Learning in Water Resources Management for Arid Agricultural Regions: A Review. *Water*, 17(21), 3125. <https://doi.org/10.3390/w17213125>
10. Cassidy, Joana & Barbosa, B. & Damião, M. & Ramalho, Pedro & Ganhão, A. & Santos, Ana & Feliciano, J. (2020). Taking water efficiency to the next level: digital tools to reduce non-revenue water. *Journal of Hydroinformatics*. 23. 453-465. 10.2166/hydro.2020.072.
11. Dong, J., Li, F., Kou, J. et al. Prediction of water consumption and affecting factor analysis using Inception-V4 network and enhanced single candidate optimization: a case study. *Appl Water Sci* (2025). <https://doi.org/10.1007/s13201-025-02697-7>
12. Shams Forruque Ahmed, Md. Sakib Bin Alam, Mahfara Hoque, Aiman Lameesa, Shaila Afrin, Tasfia Farah, Maliha Kabir, GM Shafiullah, S.M. Muyeen, Industrial Internet of Things enabled technologies, challenges, and future directions, *Computers and Electrical Engineering*, Volume 110, 2023, 108847, ISSN 0045-7906, <https://doi.org/10.1016/j.compeleceng.2023.108847>.
13. A.R. Melland, P. Jordan, P.N.C. Murphy, P.-E. Mellander, C. Buckley, G. Shortle, Land Use: Catchment Management, Reference Module in Food Science, Elsevier, 2018, ISBN 9780081005965, <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-100596-5.22550-X>.
14. Daniel P. Loucks & Eelco van Beek Title: Water Resource Systems Planning and Management: An Introduction to Methods, Models, and Applications DOI / <https://doi.org/10.1007/978-3-319-44234-1>



15. A.P. Barros, 5.04 - Orographic Precipitation, Freshwater Resources, and Climate Vulnerabilities in Mountainous Regions, Editor(s): Roger A. Pielke, Climate Vulnerability, Academic Press, 2013, Pages 57-78, ISBN 9780123847041, <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-384703-4.00504-9>.
16. Rizvi, S. A., Ahmad, A., Latif, M., et al. Importance of Remote Sensing Data in GIS Environment for Evaluation of Irrigation System Performance. Water Resources Management, 35, 4909–4926, 2021. <https://doi.org/10.1007/s11269-021-02979-0>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100